

O‘ ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: “Rang tasvirda natyurmort”

**Ilmiy rahbar:
Bajardi:**

P.f.n. A.Sulaymonov
Maxsus sirtqi bo`lim
fakulteti“Tasviriy san`at va
muhandislik grafikasi” ta`lim
yunalishi
3-“V” kurs bitiruvchi talabasi
Ergasheva Halovat Sultonovna

Navoiy-2009-2010

Oliy o'quv yurti

fakulteti

Kafedrasi

guruhi

yo'nalishi

"Tasdiqlayman"

Kafedra mudiri

Kat. o'q. *Shodirova S.H.*

20__yil "___"

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba

(familiyasi, ismi, sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi:

"___" 20__yil kafedra majlisida ma'qullangan.

2. Bitiruv ishni topshirish muddati

3. Bitiruv ishni bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar

1 _____

2 _____

3 _____

4. Xulosalash – tushintirish yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yhati)

5. Chizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchilar

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi f.i.sh.	Imzo	Sana
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarinig nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvchi o'tganlik belgisi

Bitiruv ishi rahbari:

S.T.Sa'diyev

imzo

Topshiriqni
bajarishga oldim:

Hamdamova Gulzoda
Shavkatovna

imzo

Topshiriq berilgan sana “_____” _____ 20____yil

DAVLAT ATTESTASIYA KOMISSIYASINING RAISIGA

Navoiy davlat pedagogika insttuti Pedagogika fakulteti “Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” ta’lim yonalishi kunduzgi bo‘lim bitiruvchi kurs talabasi _____ ning

Mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuboriladi.

Bitiruv malakaviy ishiga rahbarining mulohazasi, kafedraning ishini himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, taqrizlar ilova qilinadi.

FAKULTET DEKANI: _____ **p.f.d. Abdullayeva SH.A.**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” kafedrasining bitiruv malakaviy ish haqidagi

XULOSASI

Bitiruvchi kurs talabasi _____ ning

Mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kafedra yig‘ilishida muhokama qilingan va davlat attestasiya komissiyasiga himoya uchun tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri: _____ **katta o‘qituvchi Shovdiron S.A.**

MUNDARIJA

KIRISH:

I-BOB. Bolalarda, tasviriy san`atga bo`lgan qiziqishini, sanatga bo`lgan dunyoqarashini rivojlantirish.....

1.1. Maktabda tasviriy san`at darslarinig maqsad va vazifalari.....

1.2. Tasviriy sana`at darslarining mazmuni.....

II-BOB. Rang tasvirda natyurmort mavzusining tahliliy qismi.....

2.1. Tasviriy san'atning janrlari haqida ma`lumot.....

2.2. . Kompazitsiyani bajarishdagi o`ziga xos texnika va usullari.....

UMUMIY XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida, mamlakatimizda barqoror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida, amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqoror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi, bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy Iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashtiruvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik taxdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqoror rivojlanishiga to'sqinlik

qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati - jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda, jahon miqyosidagi inqiroz oqibatlari- ning ta'sirini har tomonlama hisobga olib, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, ushbu jarayonlarni pishiq hamda mukammal shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimizni taqozo etadi. Bu boradagi chora-tadbirlar Prezidentimiz I.A.Karimovning **«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»** nomli asarlarida batafsil bayon qilib berilgan. Asarda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish tahlilari, kelib chiqish sabablari, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lish ommillar tahlil qilib berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz aholisi uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'lishiga qaramay, 2008- yilda foydali bitimlar va yutuqlar baholanib, respublika- mizdagi iqtisodiy sohadagi yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari ko'proq amalga oshirish, O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon hamjamiyatida yuksak maralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida, 2009- yilga mo'ljallaigan iqtisodiy dasturning, quyidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlari bilgilab berilgan:

- Mamlakatimizda qabul qilingan, 2009-2012 yillarda Jahon iqtisodiy inqiroz oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha, qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosda iqtisodiy o'sishning barqoror sur'atlarini va iqtisodiyotning munosabatlarni rivojlanishini ta'minlash;
- Tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Maqsad muhim tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish;

- Qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirish hamda mulkdorlik tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'рни va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga, fermer xujaligini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlarini keng ko'lamda amalga oshirish;
- Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishni muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy samaradorligini yanada rivojlantirish;
- Banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini, tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish.

Prezidentimizning ushbu asarlarida belgilab berilgan, O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish, eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab etishlarini taqozo etadi. Shungdek O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining tavsiyasiga ko'ra, Prezidentimiz I.A.Karimovning «**Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari**» nomli asarlarini talabalar tomonidan chuqur va har tomonlama o'rganish, unda ko'rsatib o'tilgan dolzarb masalalarning tub mohiyatini anglash, 2009- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim yo'nalishlarini bilish maqsadida, mazkur maxsus kursning joriy etilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyatimizda yangi ish o'rinlariga zamin yaratilmoqda.

O'tgan yili AQSH ning ipoteka bozorida boshlangan, bugungi kunda ko'plab iqtisodiyot tarmoqlarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini to'g'ri baholash va shu asosda unga qarshi samarali chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish har doimgidek dolzarb masala hisob-

lanadi .Yutrboshimizning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari”nomli kitobida ham inqirozga qarshi choralar dasturi va uni amalga oshirish mexanizmlari aniq ko`rsatib berilgan edi. Bugun mamlakatimizning “oltin sandig`”deya ta`rif berilayotgan viloyatimizda Prezidentimizning 2008 yil 2-dekabrda Farmoni bilan “Navoiy”erkin industrial –iqtisodiy zona tashkil etilishi, kelajakda yangi ishlab chiqarish korxonalari sonining ortishiga va minglab muqim ish o`rinlari yaratilishiga zamin hozirlayotir.

Jahon tarixidan ma`lumki,birinchii erkin savdo zonasi, qadimiy Gretsiya davlatida tashkil etilgan.Madaniy ko`rinishdagi erkin iqtisodiy zona esa 1888 yilda Germaniyaning Gamburg shahar portida tashkil etilgan.Hozirda 135 davlatda 3000 ga yaqin bunday hudud mavjud bo`lib,ularda 68 million kishi ish bilan band hamda har yili qariib 500 milliard AQSH \$ miqdorida tovar aylanmasi mavjud.

Viloyatimizning sanoatlashgan darajasi,kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganligi,qadimiy “BUYUK IPAK YO`LI”ning kesishgan nuqtasida ekanligi ya`ni xalqaro E-40 avtomagistralining mavjudligi hamda xalqaro havo koridorining joylashgani tufayli hudud shu erda barpo etildi va hozirgi kunda 564 gr er devor bilan o`ralib kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta`minlandi.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir mu-nosobatlar esa 1996 yil 25 aprtelda qabul qilingan, “Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solingandi.

“NAVOIY”erkin industrial-iqtisodiy zonasida yaqin yillarda 100 ga yaqin xorij ishlab chiqarish korxona va fabrikalari qurilishi loyihalashtirilgan bo`lib, hozirgi kunda bir qator istiqbolli loyihalar bo`icha qurilish ishlari boshlanayotir.

2009 yilda “NAVOIY” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga 900 million AQSH \$ miqdorida 40 ga yaqin loyiha asosida xorijiy investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan.

Ayniqsa, 2009 yilning 5-mart kuni Janubiy Koreyaning Seul shahrida yirik ishlab chiiqarish korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar ishtirokida

o'tkazilgan Prezintatsiyada 600 million AQSH \$ hajmidagi 30 ga yaqin istiqbolli lohiha shartnomalari imzolangan edi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi" deb alohida ta'kidlaydi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi–

Men o'z malakaviy bitiruv ishida, tasviriy san'at mashg'ulotlarida, rang tasvirda natyurmort mavzusi haqida, umumiy tushuncha berishni, rang tasvirda natyurmort darslarining o'ziga xos texnika va usullaridan foydalanib bir nechta korinishlar keltirishni o'z oldinga maqsad qilib qo'yganman.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

–bu natyurmort darslarini o'tishning, maktab o'quvchilari uchun oddiy usullardan foydalanib o'tish orqali bilim berish.

– natyurmort darslarini o'tishda innovatsion texnologiya usullaridan o'rinli foydalana olish orqali bilim berish

Malakaviy bitiruv ishituzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 61 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

–Maktab o'quvchilarining tasviriy san'at darslarini yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida "tasviriy san'at" fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida tasviriy san'at darslarida rang tasvirda natyurmort, dars mavzularini o'rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

Tadqiqot ishimizni yozishda qo'yidagi:

Analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, tasviriy san`atning zamonaviy metodlaridan unumli foydalana oldik.

I-BOB. Bolalarda, tasviriy san`atga bo`lgan qiziqishini, sanatga bo`lgan dunyoqarashini rivojlantirish

1.1. Maktabda tasviriy san`at darslarinig maqsad va vazifalari

Umumiy o`ra ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

Tasviriy san`at o`quv predmeti har har bir inson uchun zarur bulgan badiiy madanyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir uquvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo`ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san`at asarlari bilan muzey, ko`rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. O`quvchilar o`zlarining kelajak hayotlarida ma`lum miqdorda rasm ishlashlariga to`g`ri keladi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me`morlar uchungina emas, u o`qituvchilar, injinerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Maktablar o`z nomiga ko`ra umumiy o`rta ta`lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlaridan umumiy, elementar bilim va ko`nikmalar berishni vazifa qilib qo`yadi. Yana shuni ham ta`kidlash kerakki, umumiy o`rta ta`lim maktablari rassomlarni tayorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularni rivojlantirish bilan ham shug`ullanishni nazarda tutmaydi.

Rassomlar tayyorlash, iqtidorli bolalar bilan ishlash maktab to`garaklarida, maxsus maktab va akademik litseylarda, kollej va oliy o`quv yurtlarida amalga oshiriladi. Shuning uchun umumiy o`rta ta`lim maktablarida hadda ziyod bolalarni qiynab qo`yadigan, ortiqcha zo`riqishga olib keladigan topshiriqlar berishga harakat qilish to`g`ri emas.

Maktabda tasviriy san`at mashg`ulotlarining vazifalari haqida to`xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bo`lish mumkin.

1. Tasviriy san`at darslarining o`ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilish, idrok etish, tushinish va qadr-

lashga o`rgatish; estetik va badiiy didni o`stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san`atning nazariy asoslari (yorug`,soya,rangshunoslik, perspektiva, kompazitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko`rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarini, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy me`morchilik san`at asarlarini tushungan holda o`qiy olishga o`rgatish; san`atga nisbatan qiziqish uyg`otish uni qadrlashga, sevishtga o`rgatish.

2.Tasviriy san`at drslarining qo`shimcha vazifalari,ular; bo liqni, hayotni bilishga ko`maklashish; milliy g`urur va milliy istiqloq mafkurasini amalga oshirish; bolalarga axloqiy (vatanparvarlik, baynalminnal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo`llash.

Tasviriy san`at o`quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to`xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o`qitiladigan deyarli barcha o`quv predmetlari bilan bog`lanadi va ular yuzasidan materiallarni o`zlashtirishga samarali ta`sir ko`rsatadi. Ayniqsa u o`qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san`at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo`lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samadorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Maktabda tasviriy san`at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo`naltirilgan asosiy o`quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yo`nalishlarda amalga oshiriladi:

- o`quvchilarning tabiat, san`at va hayotdagi go`zalliklarni idrok etishga o`rgatish;
- o`quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go`zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go`zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o`rgatish;
- shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o`zini ko`rsata bilishga, hatti-harakatini qo`llab-quvvatlash va hayotga go`zallik kiritish malakalarini o`stirish:

- bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy san`at o`quv predmeti o`z xarakteriga ko`ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his- tuyg`u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o`stirishda katta rol o`ynaydi. Dekarativ kompazitsiya darslarida o`quvchilar naqshlar, amaliy san`at buyumlaridagi go`zallikni his qiladilar va o`zlari ham shunday kompazitsiyalar tuzishga harakat qiladilar.

O`quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo`laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to`lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo`lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning engil pardozi, bahorgi va kuzgi manzaralarning chiroyi, majnuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarning kechki miltillab ko`rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday his tuyg`uning o`sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholashni malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolarning faoliyatlarida obrazli iboralar- ning, ya`ni “xush bichim”, “quvonchli”, “bayramdagidek” ishlatilishi ularda borliq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O`qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolarga ko`rsatish orqali yosh barglarni rangi och-yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg`irdan so`ng o`simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo`ygandek ko`rinishi, ulardagi yomg`ir donalarining kumushdek yaltirrab ko`rinishini ta`kidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg`sh ranglarining oltin tusga kirganligini, to`kilgan barglarining shildirab “gaplashishi” obrazli ko`rinishda ifo- dalanadi.

Bolalar o`z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirlaydilar. Bundan ular so`zsiz tasvirlanuvchilarning o`lchovlari, proportsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kom- pazitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishi- dagi proportsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va hayvonlarni shakl va rang jihatidan o`ziga jalb etadigan

tomonlari, ularni qayisi tomondan chiroyli ko`rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimada ekanligi haqida o`ylaydilar. O`quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o`ylar ekanlar, o`qituvchi o`z e`tiborini ularning tushinchasiga mos bo`lgan voqea va hodisalarning go`zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go`zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak-atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o`rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, vatanga muhabbat, mehnatga ishtiyoq his-tuyg`ularini uyg`otadi.

Tasviriy san`at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o`lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o`rganadilar va ularni o`z ishlarida tasvirlaydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga ega bo`ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Tasviriy san`atning tarixiy, batal janridagi rangtasvir asarlari, adabiy asarlarga ishlagan ilyustratsiyalarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o`tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollarini bilib oladilar. O`sha davrdagi binolar, o`simliklar, hayvinlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Ma`lumki bolalar, tarixiy, batal, manzara, turmush, natyurmort, animal, afsonaviy janrlarda ishlagan rasmlarda tarixiy voqealar, jangu-jadallar, xalqlar hayoti, hayvonlar, shahar va tabiat manzaralari haqida ko`pgina bilimlarga ega bo`ladilar.

Tasviriy san`atni o`qitish jarayonida, qo`yiladigan topshiriqlar o`quvchilarni birdan-bir va betakror o`z shaxsini, aqliy imkoniyatlarini namoyon etishga yo`llaydi. Bolalar o`quv topshiriqlarini echishda o`zlarini ijodkor bo`lishga undaydilar. Ular ijodkor uchun avvaldan ma`lum bo`lgan yo`ldan muammoni tez va oson hal qilib qo`yaqolmay, balki masalani yangicha, qaytarilmas echimlar orqali ularning ijodkorlik va hayolotlarini, me`yor va uyg`unlik sifatlarini ishga soladilar. Natijada, ma`lum miqdorda original, yangi qaytarilmas ijod mahsuli dunyoga keladi.

Ijodkorlik, ijodiy fikrlaydigan shaxslar ular oddiy ijrochilar emas, ular jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuchidir. Shuning uchun ham jamiyatimizga robotsi-

mon ijrochilar emas, fikrlovchi, izlanuvchan, ijodkor, tashabbuskor kishilar kerak. Jamiyatimizning ravnaqi ko'p jihatdan mashunday kishilarga bog'liqdir. Jamiyatimizda fikrlaydigan, izlanuvchan, ijodkor, hayotda ko'zda tutilmagan har qanday vaziyatlardan muammoni tez va oson echimini topa oladigan kishilar xalqimizni taraqqiyotini yanggi bosqichlarga ko'taradilar.

Ijodiy tafakkur butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o'ziga xoslikni ro'yobga chiqishiga yordamlashadi. Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar uchunguna emas, balki hamma sohada ishlovchilar (injinermi, vrachmi, dehqonmi, nonvoymmi v.b) uchun muhimdir.

Tasviriy san'at o'quv predmetining muhim vazifalaridan biri u bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivijlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, odamzod tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90% dan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10% ni quloq, burun, og'iz v.b. a'zolar orqali o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, kishilar faoliyatida ko'z va xotirani rivojlantirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bu sifatlar bolalar tomonidan borliqni idrok etish mashg'ulotlarida, shuningdek, naturadan tasvirlash, san'at shunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Bundan darslarda o'quvchilar narsalar va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, fazoviy joylashishi, harakat go'zalligini kuzatadilar hamda ularni o'z xotiralarida saqlab qolishga harakat qiladilar.

Kuzatuvchanlikni mohiyati shundaki, bunda bolalar narsa va hodisalar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo'ladilar. Maslan, kuzatuvchanligi rivojlanmagan kishilar gulni kuzatar ekanlar, unga nisbatan yuzaki yondoshadilar, ya'ni gul bandi, guli, yaproqlari, gul rangiga o'z e'tiborlarini qaratadilar.

Kuzatuvchanligi rivojlangan kishilar esa gullarning gul bandi, guli, yaproqlari va boshqalarning o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, har bir qismning rangi, yaproq va gulgullarning joylashuvini bir ko'rishdayoq eslab qoladilar. Bolalarning kuzatuvchanligi va sinchkovligi, o'z o'rnida narsalar haqidagi ma'lumotlarni xotirqda yaxshi saqlanib qolishga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham xotirani

ayniqsa, ko'z xotirasini rivojlantirishda tasviriy san'at o'quv predmetining qanchalik ahamiyatli ekanligi oydinlashadi.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari asarlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma'lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o'qigandek o'qib bo'lmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o'qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o'lchovlar, kompazitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo'libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari yoshlarda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalbinnal tarbiyada, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san'at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o'tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O'zbekistonning nafosatga to'la tabiati, xalqlar do'stligi g'oyalarini ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan to'lib toshganligining shohidi bo'lamiz.

Masalan ona tuproq uchun kurash olib borgan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O'zbekistonning rango-rang go'zal manzaralarini, o'zbek xalqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini tasvirlovchi tasviriy san'at asarlari mavjud. Ularni o'rganish jarayonida bolalar san'atining qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar.

Inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan cheklahnib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib va boyitib borishni, o'zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o'rgatish kerak. Bu vazifa o'quvchilarning tasviriy san'at darslar-

ini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq xolda kengaytirish va rivojlan tirishni taqozo etadi.

O'quvchi maktab binosiga, uning yonidagi uchastkaga, o'yin hamda sport maydonchalariga qarab, ulardagi go'zallikni his etishi, umuman maktabning qiyofasi undan o'zi bilim oladigan muhit haqida ijobiy tasavvur hosil qilishi lozim. Bunda puxta o'ylab, chiroyli qilib bezatilgan va aloxida e'tibor bilan qarab turiladigan tabiat burchagi, did bilan ishlov berilgan yo'lakcha va gulzorlar, maktab hovlisiga kiraverishdagi memorial taxta, kosmosni zabt etish, mehnat, harbiy jasorat ko'rsatgan o'g'lonlarimiz kabi temalardagi stendlar, maktab binosining joylashishi tasvirlangan panolar va hokazolar katta yordam beradi. Mana shularning hamma-sida mazkur maktabga xos badiiy bezash uslubi, turli xildagi go'zal partretlar ko'zga yaqqol tashlanib turishi shart.

Maktab binosining kiraverishda unga nomi berilgan shaxsning byusti yoki portreti, prezident burchagi, o'quvchilarning ijodiy ishlaridan namunalar ko'zga tashlanib turishi kerak. Imkoni bo'lsa, mehnatda ibrat kursatgan ota-onalarning rasmlari qo'yilgan stend tayyorlash ham maqsadga muvofiq.

1.2. Tasviriy sana`at darslarining mazmuni

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1999 yil 16-avgust qaroriga ko'ra 1999-2000 o'quv yilidan boshlab umuman o'rta ta'lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san`at ta'lim bo'yicha ham davlat ta'lim standartlari joriy etildi. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishi avallo O'zbekistonning mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog'landi.

Hozirda har bir fan bo'yicha, shu qatori badiiy-estetik turkumdagi fanlardan davlat ta'lim standartlarining yaratilishi, uni hukumat tomonidan tasdiqlanishi katta ilmiy va ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Mazkur standartlar O'zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo'lib, u respublikamiz maktablarida ta'limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib ciqishga sharoit yaratadi.

Standart tomonidan qo'yilgan talablarni to'g'ri va benuqson bajarish uchun imkon berishi bilan bir qatorda, amaliyotda qo'llanib kelayotgan dastur, darslik va metodik qo'llanmalardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish imkonini ham beradi. Shuningdek, u maktablarda ta'lim ishlarini nazorat qiluvchi tashkilotlar uchun ham asosiy hujjat vasifasini o'taydi.

Davlat standartiga ko'ra tasviriy san'at ta'limi mazmuni boshlang'ich sinflarda quyidagi to'rt yo'nalishda bayon etilgan:

1. Borliqni idrok etish.
2. Badiiy qurish- yasash.
3. Naturaga qarab tasvirlash.
4. Kompazitsion faoliyat.

Beshinchi – ettinchi sinflarda esa u quyidagi uch yo'nalishda o'z aksimi topgan:

1. San'atshunoslik asoslari.
2. Naturaga qarab tasvirlash.
3. Kompazitsion faoliyat.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha tasviriy san'at o'quv predmetini o'qitishda har bir o'qituvchi asosiy e'tiborni nimalarga qaratilishini bilib olishi kerak bo'ladi. Tasviriy san'atni o'qitishda o'qituvchining e'tibor berishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat :

1. O'quvchilarni borliqdagi (tevarak-atrofdagi) va san'at asarlaridagi nafosatni ko'rishga, idrok etishga va undan zavqlanishga hamda qadrlashni o'rgatish :
2. Bolalarni ijobiy, abstrakt, mantiqiy fikrlashga, ayniqsa ijodiy qobiliyatlari va fantaziyalarini o'stirishga yo'naltirish :
3. Tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari yuzasidan nazariy, biroq umumiy, elementlar bilimlar berish.
4. O'quvchilarga kuzatuvchanlik, ko'z xotirasi, chamalash, fazoviy tasavvur kabi shaxs uchun muhim bo'lgan sifatlarni o'stirish.
5. Rasm va naqsh, haykal ishlash yuzasidan tasviriy malakalarini o'stirish.

6. Estetik his-hayajonni tarbiyalash va rivojlantirish.
7. San`atga qiziqishini o`stirish va muhabbatni tarbiyalash.

Bu vazifalar maktabda tasviriy san`at darsini olib boruvchi har bir o`qituvchini mutaxassis bo`lishligini talab etadi. Chunki standart mazmuni, mutaxassis o`qituvchilar uchun mo`ljallab tuzilgan.

Tasviriy san`at ta`limi davlat standarti san`atning uch turi; tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari mazmunini aks ettirgan bo`lib, u avvalo milliy o`zbek san`atini, uning badiiy ananalarini, ayrim mashhur o`zbek tasviriy, amaliy me`morchilik san`atlari ustalarining hayoti va ijodini, O`zbekistonda san`atning bu turi rivij topgan markazlarni, O`zbekistondagi yirik san`at muzeylarini bilish tasviriy san`at o`quv predmetini vazifalaridan biri ekanligini qayd qiladi. Bundan maqsad milliy san`at vositasida o`quvchilarga badiiy ta`lim berish bilan bir qatorda ularda shaxsni estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir. Milliy o`zbek san`atini chet elva jahonning hozirgi zamon ilg`or san`atiga qaraganda kehgrogroq va chuqurroq o`rgatishdan maqsad har bir o`zbek o`quvchisi o`z xalqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi, uning san`atini ham nisbatan kengroq bilishga erishishdir. Milliy san`at ta`lim mazmunining poydevori bo`lishi lozim.

Ularni o`rganmasdan turib, yoshlarimiz badiiy madaniyatli shaxs bo`la olmaydi. Aks holda milliy qobiqqa o`ralashib qolish oqibatida ular jahon standartlari darajasiga chiqa olmaydilar. Ayniqsa yoshlarimiz qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston me`morchiligi, Afg`oniston, Iroq, Turkiya miniatyura rangtasvir asarlari, Evropada Uyg`onish davri tasviriy san`ati, rivojlangan G`arb mamlakatlarning hozirgi zamon tasviriy va me`morchilik san`ati namunalarini o`rganmasdan turib madaniylashgan shaxs bo`lishi mumkin emas.

Davlat ta`lim standartlari talablarini faqat o`quv rejalarida ajratilgan vaqt hajmida muvofaqiyatli bajarib bo`lmaydi.

Chunki yuqorida qayd qilinganidek, ta`lim mazmuniga doir o`quv-metodik majmualar, moddiy texnikaviy asos, yuqori malakali o`qituvchilarning etishmasligi, mavjud muammoni birmuncha murakkablashtiradi. Bu esa o`quvchilarni darsdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishni samarali shakllari va

yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Mazkur muammo bevosita o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun tegishli adabiyotlar, xrestomatik materiallar, moddiy- texnikaviy materiallar, o'quv va metodik yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqish bilan bog'langan. Hatto, bu masalada ota-onalarning vazifalari, ish mazmuni haqida o'ylab ko'rish, ularga ma'lum yo'l-yo'riq va tavsiyalar berish foydadan holi emas.

Ma'lumki, bolalarning ta'lim standartlari asosida olgan bilim va malakalarini qanday o'zlashtirganlik darajasini ham tekshirib boriladi. Bu esa standartni sinflar bo'yicha ishlab chiqish lozimligini taqazo etadi.

Davlat ta'lim standartlarida tasviriy san'at ta'limi mazmuniga bo'lgan majburiy minimum talablar bayon etilgan. O'qituvchi uni bajarishi shart. Lekin o'qituvchi bu bilan chegaralanib qolmasdan uni chuqurlashtirishga harakat qilihi lozim. Biroq ta'lim mazmunini yuqori darajada olib chiqaman deb bolalarga keragidan ortiq talablar qo'yish, ularni qiynash ham mumkin emas. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, maktablarimiz nomi umumiy o'rta ta'lim maktab deb ataladi. Demak maktablarimizda umumiy, elementlar bilim va malakalar berilishi lozim.

Davlat ta'lim standartlari bo'yicha ettinchi snifni bitiruvchi o'quvchilar quyida-gilarni bilishlari lozim:

Tasviriy san'at yuzasidan;

- rassomlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini – molbert, etyudnik, xolst, mo'yqalam, mastexin, bo'yoqlar, (yog'li,akvarel, gyash, v.b.) pastel, sous, ugol, sangina v.b;
- haykaltaroshlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini – dastgoh , bolg'a, stek, loy, tosh, yog'och, v.b;
- haykaltaroshlikda ishlatiladigan ayrim atamalarni- dastgohli haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik, plastik haykaltaroshlik, istirohat-bog` haykaltaroshligi, real haykaltaroshlik, dekarativ haykaltaroshlik, rel`ef, garel`ef, barel`ef;
- grafikachi rassomlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini ;

rangtasvirda ishlatiladigan atamalarni (natura, fon, perspektiva, chiziqli perspektiva, rang perspektivasi, havo perspektivasi, ufq chizig'i) eskiz, yorug` soua, blik, refleks, shaxsiy soya, tushyvchi soya, janr, kompazitsiya, reproduksiya, avtoportret, frezka, mozaika, vitraj, dastgohli rangtasvir, minatyura rangtasviri, monumental rangtasviri, dekarativ rangtasvir, qoralama, ranglama, etyud, original, slayd, kolorit, gamma, mumtoz san`at;

- ishlatiladigan asosiy atamalarni gravyura, limogrvyura, litografiya, ksilografiya, estamp, gazeta jurnal grafikasi, karikatura, plakat, zarhal harf, bosh bezak, yakuniy bezak zarvaraq, ilyusrtatsya, etiketka, upakovka;

- O`zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi rangtasvir va haykaltaroshlik namunalarini;

- O`zbekistonning hozirgi zamon tasviriy san`atini;

- Tasviriy san`atining janrlarini- manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, portret, afsonaviy, animal, marina;

- rang nomlarini – bargikaram, gulnor, nilgun, siybob, malla, sadaf, lojuvard, shingob, novvoti, axmar, to`tiyo, firuza, novshadil, to`tigiy, nilobi, tilla hal, kumush xil;

- O`zbekiston va jahonning dunyoga mashhur 5-6 rassomning hayiti va ijodini;

- rangtasvir, haykaltaroshlikda, grafikada ijod qiluvchi 50-60 rassom, haykaltarosh, grafiklarning ismi va familiyasi hamda ularning asarlarini ;

- tasviriy san`atdagi asosiy oqimlarini;

- Sharq miniatyura rangtasviri maktablarini ;

- Movaraunnahr miniatyura rangtasviri maktablarini ;

- O`zbekiston va jahonning mashhur tasviriy san`at muzeylarini .

Amaliy-bezak san`ati yuzasidan :

Amaliy-bezak san`ati ustalarining ish qurollari va ularning ishlatadigan materiallarini ;

- amaliy-bezak san`atida ishlatiladigan ayrim atamalarni – naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`makorligi, misgarlik, kashtachilik, sopolsozlik, zardo`zlik, ko`p-

barg, chinnigul, gullola, bodomgul, marg`ula, gulsafsar, qo`shband, stilizatsiya, islamiy, girix, guligirix, nomoyon, ochiq naqshlar, cheksiz naqshlar ;

- amaliy bezak san`atida ijod qiluvchi mashhur 10-15 ustalarning familjalari va ismlari;
- Jahondagi mashhur 3-4 amaliy san`at ustasining hayoti va ijodini ;
- O`zbekistonda xalq amaliy bezak san`ati rivoj topgan markazlarni ; Toshkentdagi, O`zbekiston xalq amaliy san`ati muzeyini.

Me`morchilik san`ati yuzasidan :

- me`morchilikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari va materiallarni ;
- me`morchilikda ishlatiladigan ayrim atamalarni – memor, jome, minora, rovoq, mezana, ark, gumbaz, maket, muqarnas, navo, koshin, maqbara, mexrob, peshtoq, poydevor, vassa (toqi), poyustun, exrom, order, gotika, romantizm, barakko, klasitsizm, rennesans, registon, interer, eksterer ;
- O`zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi me`morchilik obidalarini – Afrosiob, Varaxsha, Bolalik tepa, Tuproqqal`a v.b.;
- O`zbekistonning IX-XIX asr va hozirgi zamon mashhur me`morchiligini;
- Jahonning qadimgi va hozirgi zamon mashhur me`morchiligini ;
- Jahondagi mashhur 2-3 me`morchining hayoti va ijodini ;

Tasviriy san`at darslarining eng muhim vazifalaridan yana biri, tasviriy, amaliy va me`morchilik san`atlari asarlarini o`qishga o`rgatishdir. Tasviriy san`at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma`lum bir mazmunni aks ettiradi. Biroq uni kitob o`qigandek o`qib bo`lmaydi. Tasviriy san`at asarlarini o`ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o`qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqlar, ranglar, o`lchovlar, kompazitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmetining maqsad vazifalaridan kelib chiqqan va ta`limning davlat standartlariga asoslangan holda ta`lim mazmuni aniqlanadi. Tasviriy san`at dasturida uning quyidagi besh turi belgilangan :

1. Borliqni idrok etish (1-4 sinflarda) .2. Badiiy qurish – yasash (1-4 sinflarda). 3. San`atshunoslik asoslari (5-7 sinflarda). 4. Naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflarda). 5. Kompazitsion faoliyat (1-7 sinflarda).

Borliqni idrok etish

O`quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o`stirishda muhim rol` o`ynaydi. Borliqni idrok etish mashg`ulotlari odatda mavzuli kompazitsiyalarni bajarishdan oldin o`tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak- atrofdagi nafislik va go`zallikni ko`ra bilish, idrok etish natijasida olingan tassurotlardan amaliy, badiiy-ijodiy faoliyatlarida foydalanish nazarda tutiladi. Shuningdek, tabiatga qilingan sahyohat jarayonida, zarur hollarda ayrim ob`ekt va hodisalarni qalam, bo`yoq va boshqa badiiy materiallar yordamida xomaki rasmlari ham ishlanadi.

Bunday darslarda bolalar sinf va sinfdan tashqari o`simliklar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko`rinishlari, kayfiyati (quvonchli, g`amgin, o`ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Boshlang`ich sinflarda borliqni kuzatish va ular haqida suhbatlar o`tkazish, o`quvchilarga hayotdagi ba`zi bir hodisalarni, kengroq bilib olishga yordam beradi. U narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma`lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o`stirishga ham imkon beradi.

Tabiat va borliqni kuzatish jarayonida bolalarni uni sevishga, asrab-avaylash ga o`rgatiladi. Tabiatga qilingan sayohatlarda ularning ayrim jihatlari fasillarga bog`liq bog`liq holda o`zgarib turishligi bolalarga tushintiriladi. Shuningdek, bunda bolalarni fazoviy tasavvurlari ham o`stiriladi va planlik, chiziqli va havo havo perspektivasiga ham e`tibor beriladi. Borliqni kuzatish bevosita tasviriy ijodiy faoliyat bilan bog`liq ekanligi, borliqni bilmasdan turi sifatli tasviy ishlarni bajarish mumkin emasligi bolalar ongiga etkaziladi.

Borliqni idrok etish mashg`ulotlarini vazifalariga rioya qilgan holda quyidagi mazmunda mashg`ulotlar o`tkazish nazarda tutiladi:

1.Kuz, Qish, Bahor fasillarida tabiatni o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish;

2.Gullar, Hasharotlar, Dekrativ baliq va qushlarni kuzatish;

3.Tabiat mo`jizalari, bahorgi va kuzgi ishlar bilan tanishish vaho-kazolar.

Yuqorida qayd qilinganidek, bunday mashg`ulotlardan maqsad, borliq-ni bilishi, undagi narsa va hodisalarni, o`ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, tuzulishi, rangi, o`lchovlari, o`lchov nisbatlari, fazoviy holatlari, ularni yil fasillariga qarab o`zgarishlarini anglab etishlariga erishishdan iboratdir. O`zgarish zarur bo`lgan ob`ektlarni naturadan kuzatishning imkoni bo`lmagan taqdirda o`qituvchi darsda bolalarni san`at asarlarining reproduksiyalari, slaydlari, foto nusxalarini namoish etish orqali o`z maqsadiga erishadi.

Boshlang`ich sinf tasviriyl san`at darslarida o`quvchilarning qiziqishlari va ijodkorligini oshirish va rassomchilikda ishlatiladigan turli materiallar bilan kengroq tanishtirish maqsadida **badiiy qurish-yasash** ishlari ham olib boriladi.

Tasviriyl faoliyatning bu qiziqarli turi uchun dasturda alohida soatlar ajratilgan bo`lib, ular mashg`ulotlar mazmunini yanada boyitadi. Qurish-yasash uchun asosan uch xil materiallardan fodalanish nazarda tutiladi;

1. Badiiy materiallar (rangli qog`ozlar, falga, gulqog`ozlar, plastilin, loy va bosh.r).

2. Tabiiy materiallar (daraxt barglari, shoxlari, ildizlari, po`stlog`lari, meva va sabzavotlarning urug`lari, rangli toshchalar, bug`doy va arpa poyalari v.b.)

3. Tashlandiq materiallar (ichimlik va dori-darmondan bo`shagan sintetk idishlar, gigurt qutichalar, po`kak, penoplast, idish qopqoqlari v. b.)

Badiiy qurish-yasash mashg`ulotlarida bolalarni qaychi bilan ishlash, kley yordamida elimlash, qog`ozlarni narsalar shakliga mos holda buklash, o`rash, ayrim badiiy tashlandiq va tabiiy materiallarni bir-birlariga qo`shish

orqali tasvir yaratish kabi malakalar hosil qilinadi. Bu malakalarni hosil qilish boshlang`ich sinflar dasturida bir qator topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi. Ular quyidagilardan iborat:

- turli shakldagi qalamdon, quticha, havo shari, bayroqcha, choynak, lagan, mashina, samaliyot, raketa vashu kabi narsalarni rangli qog`oz va kartondan tasvirini yasash;

- hasharotlar–tilla, qo`ng`iz, ninachi, kapalak va boshqalarni, rangli qog`ozlarni qirqish orqali hosil qilish;

- rangli qog`ozlarni qirqish, buklash va elimlash yo`li bilan osma o`yinchoqlar tayyorlash;

- tabiiy materiallar yordamida baliq, hasharot, qush, hayvonlarning tasvirlarini hosil qilish;

- rangli qog`oz, badiiy va tashlandiq materiallardan aplikatsiya, kollaj, pap`e-mash`e, aralash usulda mazmunli kopazitsiyalar (masalan, “ Ko`cha-da”, “Kosmodromda”,) ishlash;

- tashlandiq materiallar sim, ip, kanop, gazlama parchalari, plasmas idishlar, gugurt qutichalari, po`kak, penoplast, idish qopqoqlari yordamida unca murakkab bo`lmagan transport (qayiqcha, pir-pirak, mashina, traktor v.b.), qushlar (qaldirg`och, to`ti g`oz, chumchuq, laylak, o`rdak, sa`va v.b.), hay- vonlar (tulki, bo`ri, quyon, ayiq, yo`lbars, it, sher v.b.) ning o`yinchoq tasvirlarini ishlash;

- quritilgan barglar, rangli qog`ozlar, shoxlar yordamida ochilgan gul, gullagan daraxt shoxchasi tasvirini tayyorlash v. b.

Badiiy qurish-yasash ishlarida eng muhim vazifalardan biri badiiy, tashlandiq materiallarning o`ziga xos jihatlarini (qattiq, yumshoq, mo`rt, egiluvchan, og`ir, engil, och, to`q v.b.) bilish hamda ular bilan ishlaganda o`lchov va o`lchov nisbatlarini, tuzilishi, shakli ranglarini to`ri belgilash talab etiladi.

Shuningdek qurish-yasash ishlarida qoʻllanadigan oʻquv qurollari va materiallarini bilish, tabiiy, badiiy, tashlandiq materiallarini bir-birlaridan farqlay olish ham talab etiladi.

Narsalar shaklini koʻra olish han badiiy faoliyatining bu turi vazifasiga kiradi. Bunday ishlarni bajarganda ish joyini ozoda batartib tutabilishga ham oʻrgatiladi.

Sanʼatshunoslik asoslari boʻlimi oʻquv predmetining muhim qismlaridan biridir. U dasturda 5–7 sinflarda mustaqqil boʻlim sifatida oʻzining oʻquv vazifalari tizimiga ega va u tasviriy, amaliy–bezak, meʼmorchilik sanʼatlari materiallaridan tashkil topadi. Mazkur bolimning maqsadi oʻquvchilar tomonidan sanʼat asarlarini ongli idrok etish va baholash uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushinishga yordam berishdan iborat.

Sanʼatshunoslik asoslari boʻlimi oʻquvchi shaxsining estetik rivojiga koʻmaklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va sanʼat asarlari orqali tevarak-atrofdagi hayot goʻzalliklari bilan tanishtiradi, badiiy didini shakllantiradi, sanʼatni sevishga oʻrgatadi.

Oʻquvchilar bilan sanʼatshunoslik asoslari boʻyicha oʻtkaziladigan mashgʻulotlarda ular mumtoz madaniy meros bilan tanishtirib boriladi, uning buyuk ananalari va sanʼatning xalq uchun xizmat qilishi, sanʼatdagi turli oqimlar va yoʻnalishlar toʻgʻrisida tushinchalar hosil qilinadi.

Tasviriy amaliy sanʼat asarlarini idrok etishga oid oʻquv materiallar oʻquvchilarning amaliy ishlari bilan bogʻlangadir. Sanʼat asarlarining nusxalarini bolalarga koʻrsatish va ularning tahlili oʻquvchilarda sanʼatga qiziqish uygʻotadi va ularni shu sohaga yoʻllaydi. Asarlarni namoish etishda bolalar unda ifodalangan gʻoya, asosiy fikr va qoʻllanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi.

Dekorativ-amaliy sanʼatga doir sanʼatshunoslik asoslari darslarida, amaliy-bezak sanʼati, xalq amaliy-bezak sanʼati, oʻzbek xalq amaliy-bezak sanʼati, liboslar, oʻzbek va chet el xalqlarining milliy liboslari haqida bilimlar berish, xalq ustalari ishlatadigan ish qurollari va materiallari bilan tanishtirish

nazarda tutiladi. Bunday darslarda Toshkentdai xalq amaliy san`ati muzeyi va Respublikamizdagi xalq maliy san`atining mashhur namoyondalari hisoblangan Usta Shirin Murodov, Ota Polvonov, Hamro Raximova kabilar haqida ham suhbatlar o`tkazish rejalashtirilgan.

Me`morchilik san`ati borasida esa me`morchilik san`ati va uni atrof-muhit bilan bog`liqligi, me`morchilikda go`zallik, maqsadga muvofiqlik haqida tushunchalar berish, individual va ijtimoiy me`morchilik, ularning turlari bilan tanishtirish, binolarning vazifasi va ularning estetik yechimining o`zaro bog`liqligi, fasad va inter`erdagi dekorativ bezaklarning xarakteri, me`morchilikda qo`llaniladigan asosiy atamalar haqida fikr yuritiladi. Binolarning tashqi va ichki badiiy bezaklarining xarakteri, ularda ishlatiladigan materiallar bilan ham tanishtiriladi.

Tasviriy san`atdan davlat ta`lim standartlarida qayd qilinganidek, bolalarga san`atshunoslik asoslari quyidagilar haqida bilimlar berishni nazarda tutadi:

1. Tasviriy san`at - san`atning bir turi ekanligi va uning kishilar hayotidagi o`rni va ahamiyati. O`zbekiston hududida tasviriy san`atning taraqqiyoti (Afrosiyob, Varaxsha, Tuproq qal`a v.b. joylardan topilgan tasviriy san`at namunalari). Tasviriy san`atning turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marina). Rangtasvir turlari-dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, miniatyura rangtasviri. Rangtasvir texnikasi-freska, mozaika, vitraj.

2. Haykaltaroshlik turlari-dastgohli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental haykaltatoshlik; Rel`ef (barel`ef, gorel`ef); yumaloq haykallar

3. Grafika turlari-dastgohli grafika, estamp, plakat, kitob grafikasi; gazeta- jurnal grafikasi; targ`ibot va tashviqot grafikasi; etiketka, upakovka, v.b.

4. Movarounnahr minatyura maktabi; Sharq minatyura maktablari; Yevropada Uyg`onish davri tasviriy san`ati; Jahonning hozirgi zamon ilg`or

tas- viriy san`ati; jahon tasviriy san`atidagi asosiy oqimlari; dunyoning eng yirik tasviriy san`at muzeylari; O`zbekistonning eng yirik tasviriy san`at muzeyi. Jahonga mashhur eng buyuk rassomlarning hayoti va ijodi (Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, O`rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov v.b.).

Naturaga qarqab rasm ishlash mashg`ulotlari narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, ularning xarakterli, tipik belgilarini bilish imkonini beradi. Shu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, xotira, estetik did, obrazli tafakkur kabi eng muhim tasviriy malakalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ular tik, yotiq, og`ma, egri, to`lqinsimon chiziqlarni chizish, bo`yoqlar bilan tegishli yuzani bir me`yorda bo`yash, och tusdan to`q tusga va aksincha to`qdan ochga o`tish, o`quvchilar to`g`ri va egri chiziqlarni teng bo`laklarga bo`lish malakalarini o`zlashtiradilar. Chizilayotgan rasm mazmunidan kelib chiqqan holda qog`oz formatini to`g`ri tanlashni hamda rasmni qog`ozda kompozitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishni o`rganadilar. Shuningdek, rasmni bosqichlar asosida ishlashni o`zlashtiradilar.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg`ulotlarida o`quvchilar, mo`yqalam, rangli qalamlar, akvarel, guash bo`yoqlari bilan ishlash yo`llarini o`rganadilar, imkoni bor joylarda ko`mir (ugol), sous, pastel, sangina kabi materiallar bilan ham ish olib boradilar.

Tasvirlash jarayonida naturani tahlil qilish, ularning qismlarini bir-biri bilan taqqoslash, umumlashtirish kabilar rasm ishlovchining e`tibor markazida bo`ladi. Bunda ayniqsa, chiziqlar ravonligi, ranglarning nafis va mutanosibligi, ifodalangan go`zalikni zehnlab tasvirlay olishga alohida e`tibor beriladi.

Boshlang`ich sinflarda ko`proq bolalarning tasviriy imkoniyatlariga moskeladigan bayroqcha, soat, havo shari, o`yinchoq mashinalar, ninachi, kapalak, tilla qo`ng`iz kabi hasharotlarni rasmini ishlash nihoyatda qo`l keladi. Bunday mashg`ulotlar uchun natura tanlashda o`qituvchi, ularning estetik ko`rinishiga, shakl, rang jihatidan bolalarda qiziqish uyg`otadigan bo`lishligiga o`z e`tiborini qaratadi.

Kompazitsion faoliyato`zmazmuniga ko`ra uch qismga bo`linadi:

1. Rangtasvir kompazitsiyasi. 2. Dekrativ kompazitsiya. 3. Haykalta-roshlik kompazitsiyasi.

Kompazitsion faoliyat o`quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatni, o`z fikr va taassyrotlarni rasmda obrazli qilib tasvirlash hamda badiiy didni o`stirishni maqsad qilib qo`ydi.

Rangtasvir kompazitsiyasi mashg`ulotlari tevarak-atrofdan olin gan ko`rinish va hodisalarni uning barcha janrlarida (manzara, turmush, natyur-mort, tarixiy, animalistik, afsonaviy, marina) amaliy ishlar shaklida bajarishni nazarda tutadi. Bu amaliy ishlar bevosita yorug` soya, rangshunoslik, perspektiva yuzasidan olib boriladigan nazariy bilimlar bilan bog`liq holda analga oshiriladi. Bunday amaliy mashg`ylovlarda bolalar naturani kuzatish, (qoralama, ranglama, uzoq davom etadigan rasm ishlash) xotiradan, tasviriy san`at asarlaridan olgan bilim va malakalarga tayangan holda ish olib boradilar. O`quvchilar tanlangan mavzuga ko`ra uning elementlarini qog`oz yuzasida bir-biriga bog`liq holda joylashtirish, yaxlit rangtasvir kompazitsiyani hosil qilish, mavzu mazmuniga mos keladigan rangtasvir kompazitsiyasni topish uchun bir xil xomaki ishlar, eskizlar ishlaydilar. Kompazitsiya tuzishda bolalar obrazlarning tipik belgilarini tanlab olib, qismlarning o`mini almash-tirib, qo`shimcha detallar kiritish orqali kompazitsiya mazmunini boyitish kabilarga alohida e`tibor beradilar. Unda kompazitsiyaning bir butunligi, qismlarni, shakllarni, ranglarni xillashtirish va ular o`rtasidagi bog`lanish va kontrastlik, asardagi hamma vositalarning bosh g`oyaga bo`ysindirish kabi qonun qoidalar hisobga olinadi.

Rangtasvir kompazitsiyasi darslarida o`quvchilar bo`yoqlar bilan tasvirlash, tasvirda asosiyni bo`rtirib ko`rsatish, tasvirda uzoq-yaqinlikni ifodalashda perspektiva qoidalariga amal qilishni o`rganadilar.

Dekrativ kompazitsiya masshg`ulotlarida badiiy-bezak ishlarida foydalaniladigan uo`lsimon, kvadrat, to`rt burchak, doira naqshlar, ochiq va yopiq naqshlar, namoyon naqsh namunalaridan ko`chirish va mustaqil ijodiy

ishlarni o`rganadilar. Bu ishlar bevosita buyum bezagi bilan bog`liq holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, taklifnoma, tabriknomalar tayyorlash kabi amaliy ishlar ham bajariladi. Milliy va chet el xalqlarining liboslari uchun eskizlar tayyorlanadi, tabiiy shakllarni stilizatsiyalash yuzasidan mustaqil ishlar olib boriladi. Dekorativ kompazitsiya mashg`ulotlarida xalq ertaklari, hikoyalar, dostonlar, she`rlar mazmuniga eskizlar ishlash katta o`rinni egallaydi. Bunda bolalar kitoblarini ichki va tashqi (muqova) bezagiga doir (bosh bezak, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiya) ishlarni bajaradilar. Dekarativ ishlarda o`quvchilar buyumlarning vazifalari, ularning shakli, bezak elementlarining o`zaro bog`liqligi haqida elementar tushunchalriga ega bo`ladilar, hamda yuksak mahorat bilan tasvirlangan narsalarni didsiz, pala-partish ishlagan narsalardan farq qilishini o`rganadilar.

Dekorativ kompazitsiya darslarida bolalarga har qanday naqshlarning elementlari tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan olingan haqida tushuncha beriladi. Binobarin, naqsh ishlash mashg`ulotlarida rasm ishlovchi real shaklni o`zlashtirishi, uni soddalashtirishi, unga yangi elementlarni qo`shishi mumkinligini o`rganib oladi.

Haykaltaroshlik kompazitsiyasi mashg`ulotlarida odam, hayvon, qushlarning alahida haykallari, sport, hayvonot olami mavzularida, xalq ertaklari asosida tasviriy ijodiy ishlar bajariladi. Dekarativ haykaltaroshlik oquvchilarga turli dekarativ bezakli rel`eflar va o`yinchoq haykallar ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qiladi. O`zbek xalq kulolchilik san`ati an`analari asosida “Toychoq”, “Qo`zichoq”, “Bo`taloq” kabi o`yinchoq haykalchalar ishlanadi. Fantastik mavzularda, dev, ajdarho, kentavr, suv parisi, xumo qushi kabilarni dekarativ haykallari ijodiy tarzda bajariladi. Bunday mashg`ulotlarda bolalar stek bilan ishlash, loy yoki plastilinni dumaloqlash, bosib yapaloqlash, silliqdash, cho`zish usullarini o`rganadilar.

Haykaltaroshlik mashg`ulotlarida ikki xil ish uslubi mavjud bo`lib:

1. alohida-alohida loy yoki plastilin bo`laklarini bir-biriga yopishtirish orqali haykal ishlash bo`lsa;

2. yaxlit loy bo`lagiga stek bilan ishlov berish orqali haykal ishlashdir;

Bularni bolalar yakka yiki gruh bo`lib bajaradilar. Kompazitsiyalardagi obrazlar soniga qarab, gruhdagi bolalar soni kam yoki ko`p bo`lishi mumkin.

II-BOB. Rang tasvirda natyurmort mavzusining tahliliy qismi

2.1. Tasviriy san'atning janrlari haqida ma'lumot.

Tasviriy san'atda natyurmort, manzara, maishiy, portret, tarixiy, animal, (ya'ni hayvonot olamiga oid) afsonaviy, dengiznavislik, nyu, interyer janrlari mavjud.

Janr – rassom nimani tasvirlayotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, asarlarda jonsiz narsalar tasvirlansa (natura) “Natyurmort”, odam rasmi ishlansa, ular “Portret”, tabiat va shahar ko'rinishlari tasvirlansa “Maishiy” janriga xos bo'ladi. Yoki tarixiy voqealarni tasvirlash “Tarixiy ” janr, hayvonlarni tasvirlash “Animal” janr deb yuritiladi. “Animal” janri lotincha “anima” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, hayvon ma'nosini anglatadi. “Batal” janri esa franso'zcha, “ batay ” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, jang, “nyu” janri franso'zcha yalang'och ma'nosidagi so'zidan kelib chiqqandir. Ayrim asarlar, bir paytning o'zida, ikki va undan ortiq, janrlariga man- sub bo'lishi mumkin. Masalan, portret va nyu, dengiznavislik, inter'er, manzara va hokazolar.

Har bir janr, o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linishi mumkin. Masalan, manzara janrini tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi janri, industrial-sanoat binolari ko'rinishi manzarasi janriga yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga bo'lish mumkin.

Vaqt o'tishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus olishi ham mumkin. Masalan manzara janridan dengiznavislik, tarixiy janridan batal, manzara janridan inter'er ajralib chiqqan.

Manzara janri. Tasviriy san'atda tabiat, shahar industerial-sanoat, inter'yer ko'rinishlarning tasvirlanishi manzara janriga ta'luqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevoseta tabiyatning haqiqiy, ya'ni hayotiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalarda borliq ijodiy tarzda, hayolan ifodalangan bo'ladi. Ba'zan bu ikki hol bir asarda ko'zatilishi ham mumkin. Manzara janrining paydo bo'lishi juda o'zoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarning keng tarqalishning qadimgi Sharq va Krit orollardagi, qadimgi arxeologik qazilmalari misolida ko'rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi davrlarga oid Beni-Hasandagi qabr toshda yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan. Manzara janri mustaqil ravishda Xitoyda VI

asrda paydo bo'lgan bo'lsa Yevropa san'atida Uyg'onish davrida ilmiy negizda, ya'ni chiziqli va havo (rang) perspektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrining ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning orqa tomonoda tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmandlariga manzur bo'lgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboyev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni alohida tilga olish mumkin.

Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu inter'er hisoblanadi. **Inter'er** binolarning ichki qismi ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi misrliklar va xitoliklar o'z ishlarida inter'erni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Jotto, A. Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrantlar shuhrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu dengiznavislik janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi hodisalar tasvirlanadi. Dengiz janrining shakllanishida, I. Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo'lgan. Bu ulug' rassom o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jahon tasviriy san'atida munosib o'rinni egallaydi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazolar.

Manzara janri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Haykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, balki to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'atda, ayniqsa, rangtasvirda rangning roli benihoya kattadir. U asarning mazmuni va g'oyasining to'la ochilishiga uning tomoshabinga emotional-hissiy ta'sirini kuchaytirishga, shuningdek, kompazitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Natyurmort janri. “Natyurmort” soʻzi frususcha boʻlib “jonsiz narsalar (natura)” maʼnosini anglatadi. Bu janrdan asosan rangtasvir va grafika asarlarida keng qoʻllaniladi. Tasviriy sanʼatning bu janrida gullar, mevalar va sabzavotlar qushlar, baliqlar oziq-ovqatlar, turli predmetlar aks ettiriladi. Natyurmort mustaqil janri sifatida XV –XVI asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo boʻlgan. Natyurmortning ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil ravishdagi natyurmort boʻlsa, ikkinchisi yordamchi yoki toʻldiruvchi natyurmortdir. Natyurmortning birinchi turida faqat natyurmort tasvirlansa, ikkinchi turida natyurmort bironta portret yoki maishiy janrdagi tasvirda qoʻshimcha detal sifatida ishlangan boʻladi. Natyurmortning xarakterli xususiyati – uning hayotdan, goʻzallikdan zavqlanishga yoʻnaldirilganligidadir. Bu fazifani rassom gullar, meva–sabzavotlar, oziq-ovqatlarni turli koʻrinish va ranglarda ifodalab, kishilarning his-hayajonini uygʻotish orqali bajariladi.

Natyurmortning turli millat va elatlarning turmush tarzi haqida maʼlumotlar berishi ham oʻta muhimdir. Mutaxassislar natyurmortning kishilarga ikki xil taʼsirini qayd qilishadi. Birinchisida, natyurmort kishilarni goʻzallikka oshno etib, ularni hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Agarda u meva-sabzavot va oziq-ovqatlar tasviridan tashkil topgan boʻlsa, tomoshabinga yaxshi kayfiyat va ishtaha baxsh etadi.

Ikkinchisida natyurmort oʻzi haqida emas, balki u bilan bogʻliq shaxs uning egasi haqida maʼlumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasa-da, biroq uning didi, ishtimoiy mavqey ifodalanadi.

Natyurmortlarning bu ikki xili yaxlit holda ifodalanishi ham mumkin. Bu janrlarda ijod qilgan rassomlardan J.Sharden, F.Snayders, I.Mashkov, P.Konchalovskiy, L.Salimjonovlar katta shuhrat qozonganlar.

Agar insonda xoxish – istak qattiq boʻlsa, atrofdagi barcha narsalarni aniq koʻchirib chizishni oʻrganish mumkin. Ammo borliqni faqatgina koʻchirib chizish, bu rassom boʻldim degani emas.

Maishiy janr. Bu janrdagi asarlar kishilarning maishiy turmush tarzi, mehnati, kundalik hayoti bilan bogʻliq boʻlib, ularda koʻproq. oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks ettiriladi. Maishiy janrdagi asarlar

nafaqat hozirgi kun odamlarining balki o'tmishdagi kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham keng ma'lumot beradi.

Tasviriy san'atda maishiy janr XVII asrda Gollandiyada paydo bo'lgan. Bu janr o'z mazmuni jihatdan ancha murakkab bo'lib, natyurmort, manzara, animal va boshqa janrlar bilan bog'liq tarzda yaratiladi. Maishiy janr ko'proq rangtasvirda, ba'zan esa grafika va haykaltaroshlikda ham ishlatiladi. Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar tarixida nihoyatda ko'p bo'lib, ulardan eng mashhurlari sifatida turli zamon va makonlarda yashab ijod etgan Kamoliddin Bexzod, Leonardo da Vinchi, Ilya Repin, Z.Inog'omov, J.Umarbekov, A.Sikeyros, R.Kent va boshqalarni tilga olib o'tish mumkin.

Portret janri. "Portret" frantso'zcha "portrait" so'zidan olingan bo'lib, kishilarning chehrasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portret-da kishilar yakka, ikki kishi yoki bir guruh sifatida tasvirlanishi mumkin. Portret-da odamlarning faqat boshi, ba'zan ular beligacha yoki buyi-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Portret tasviriy san'atning uchala turida ham qo'llaniladi. Portret o'z xarakteri jihatidan monumental, miniatyurali, dastgohdi, ishqiy, hajviy bo'ladi.

Rassomlarning ijodida uning avtoportret xili ham keng tarqalgan. Avtoportretni rassom oynadagi o'z aksiga qarab yaratadi. Portret rassomlar tomonidan naturani kuzatish, xotiradan yoki shaxsning fotosidan, shuningdek, arxiv materiali yoki adabiy tasviridan, ba'zan xatto vafot etgan marhumning bosh chanog'ini o'rganish asosida ham yaratiladi.

Portretchi asarning o'z qahramoni tashqi qiyofasiga o'xshash bo'lishiga erishishdan tashqari uning millati, kasbi, tabaqasini ham ifodalashga harakat qiladi. Shuningdek, portret-da shaxsning ichki kechinmalari, kayfiyati, ma'naviy dunyosi ham tasvirlanishi kerak.

Dastlabki portretlar qadimga Yunonistonda miloddan avvalgi VII-V asrlarda yaratilgan. Portret janri O'rta asrlarda Sharq, miniatyurachilari va Evropa rangtasvirchilari va haykaltaroshlari ijodida ham keng rivoj topdi. Bu janrda Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, XVIII—XIX asrlarda O.Renuar,

P.Pikasso, I.Repin, XX asr O'zbek rassomlaridan A.Abdullayev, Ch.Axmarov, V.Kaydalov kabilar samarali ijod qildilar.

Tarixiy janr. Rangtasvirning bu janrida insoniyat tarixidagi muhim voqealar va qahramonlar hayoti tasvirlanadi. Rassom bironta tarixiy voqealar ko'rinishini tasvirlash uchun avvalo o'sha voqeaning boshqa tarixiy voqealar orasidagi o'rni va muhimligini anglab yetishi kerak bo'ladi. So'ngra u o'sha voqea sodir bo'lgan davr haqidagi adabiy manbalarni, tarixiy me'morchilik obidalarini hamda u yerdan topilgan arxeologik topilmalarni o'rganadi, ular asosida qoralama va ranglamalar yaratadi. Mavzuga aloqador tarixchilar bilan suhbatlashish voqea mazmuni hamda yaratiladigan asar detallarini aniqlashtirishga yordam beradi.

Batal janri. Bu janrdagi asarlarda rassomlar urush jarayonlarini zavq.-shavq, ko'tarinkilik, qahramonlik kabi tuyg'ular bilan ifodalashga harakat qiladilar.

Bunday asarlarda ko'proq, vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Ularda nafaqat jang ko'rinishlari, balki harbiylarning jangdan tashqari vaqtdagi turmushi ham ifodalanishi mumkin.

Jang manzaralarini tasvirlash qadimdan ma'lum bo'lsa-da, uning san'atda ifodalanishi Sharqda XV-XVI asrlarda keng tarqalgan. Ayniqsa, u Sharq miniatyura rangtasvirida alog'ida o'rin egallaydi. Mazkur janr XV—XIII asrlarda Yevropa Rangtasvirida rivoj topdi.

Tarixiy va bataljanrlarda samarali ijod qilgan rassomlar qatoriga Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, D.Velaskes, K.Bryullov, P.Pikasso, P.Rubens, F.Goya, V.Surikov, L.Deyneka, M.Nabiyev, R.Choriev kabilarni kiritish mumkin.

Animal janr. Animal lotincha "anima" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "jonlantirish" demakdir. U tasviriy san'atning deyarli barcha turlarida mavjud. Hayvon va qushlarning rasmini ishlovchi rassomlarni animalist rassomlar deb yuritishadi. Bunday rassomlarning tabiatga, uning ajralmas qismi bo'lgan hayvonot olamiga muhabbati kuchli bo'ladi.

Animal janr tasviriy san'atning mustaqil janri bo'lsa-da, hayvonlar tasviri ba'zan maishiy, portret, natyurmort janrlarida ham aks etishi mumkin.

Hayvonlarni tasvirlashga qadimgi Misrda katta e'tibor berilgan edi. Chunki, misrliklar ko'plab ilohlarini turli hayvonlar qiyofasida tasavvur etishgan. Ularni sfinkslarda odam, turli hayvonlar va qushlar ko'rinishida tasvirlaganlar. Bu ulkan haykallarning tanasi odam, boshi biror yirtqich hayvon yoki qush ko'rinishida bo'lgan. O'zbekistonda hayvonlar tasvirini ishlash eramizdan avvalgi VII-V asrlarda Afrasiyob freska va haykallarida (fil, ot, tuya, qushlar) yuksak badiiy saviyada ishlanganligining guvohi bo'lamiz.

Sharq, miniatyura rangtasviri asarlarida hamhayvonlar tasviri tez-tez uchrab turadi. Miniatyurachi rassomlar tomonidan ishlangan ov manzarasiga oid tasvirlarda kiyik, sher, qoplon, qushlar ko'p tasvirlanadi. Kamoliddin Behzodning "Tuyalar jangi" asari Rizo Abbosiyning "Cho'pon" miniatyurasi ham fikrimizning dalilidir.

XV—XVI asr Yevropada Uygonish davri rangtasvirida A.Pizanello, Leonardo da Vinchi, A.Dyurerlar hayvonlar tasvirini aniq realistik tarzda ifodalashga harakat qilganlar.

XVII asrga kelib Gollandiyada hayvonlarni tasvirlash alohida janrga aylandi. Keyinchalik animal janrda rassom va haykaltaroshlardan P.Klodt, V.Serov, V.Vatagin, Yu.Vasnetsovlar ham ijod qilishib, betakror san'at asarlarini yaratdilar.

Afsonaviy janr. Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq, xalq tomonidan xayolan o'ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqea hamda hodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yo'rgan qanotli farishtalar, huru- g'ilmonlar, uch boshli ajdarlar, yarmi odam, yarmi ot "kentavrlar", yarmi ayol yarmi baliq, suv parilari, yarmi ayol, yarmi qush jonzotlar, bir ko'zli bahaybat devlar va xakazolar tasvirlanadi.

Afsonaviy janr tasviriy san'atning hamma turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika)da keng qo'llanadi. Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatyurachi rassomi, Sulton Muhammad, rus rassomlaridan M.Vrubel, V.Vasnetsovlarni kiritish mumkin.

Dengiznavislik janri (Marinizm). Marina frantsuzcha soʻz boʻlib, dengiz koʻrinishi maʼnosini bildiradi. Marinizm — yaʼni dengiznavislik rangtasvirning turi sifatida Yevropa sanʼatida alohida oʻrinni egallaydi. Dengiz, dengiz hayotidagi mugʻim voqealar kemalar tafsilotini aynan tasvirlashga ushbu yoʻnalish muhim oʻrin tutadi.

Golland manzarachi rassomlaridan Ya.Porsellis, S.de Vliger, X.Sigers va boshqalar dengiznavislik janri imkoniyatlarini yanadi kengaytirib, dengiz tabiati va u bilan bogʻliq baliqchilar hayotini aks ettirishda samarali ijod qildilar. Keyinchalik oyna janrda K.Verne, U.Terner, X.Mesdag, I.Ayvazovskiy kabi rassomlar yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratdilar. Ushbu janrda Oʻzbekistonlik moʻyqalam ustalaridan F.Madgazin, Oʻ.Tansiqboyev, A.Moʻminovlar barakali ijod qilishgan.

Dengiz koʻrinishlari portret, tarixiy, batal, maishiy jairlagi suvratlarning orqa planida ham tasvirlanishi mumkin.

Nyu janri. "Nyu" soʻzi frantsuz tilidan olingai boʻlib, u yalagʻoch degan maʼnoni anglatadi. "Nyu" portret janridai ajralib, chiqib mustaqil ahamiyat kasb etgan. Mazkur janrda rassomlar koʻpincha yalangʻoch ayollar rasmini ishlaydilar va bu orqali ular tanasidagi nafosatni koʻrsatmoqchi boʻladilar. "Nyu" portret janri kabi yakka yoki koʻp figurali boʻlishi mumkin. U tasviriy sanʼatning barcha turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika)da keng qoʻllaniladi.

Interer janri. Bu janrda binolarnig ichki koʻrinishi, foe, yoʻlak, xonalarning oʻziga xos jihatlari, ulardagi jihozlar, bezaklar va gullar tasvirlanadi.

R.Hasanov. Tasviriy sanʼat asoslari Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot. T-2009y(6-20 betlar)

2.2. Kompazitsiyani bajarishdagi oʻziga xos texnika va usullari.

Tasviriy sanʼatning nazariy asoslari bilan tanishish har bir mutaxassis uchun nihoyatda zarur. Bunda asosiy etibor kompozitsiya , nur va soyaning oʻzaro muvofiqligi, rang shunoslik perspektivani oʻrgatishga qaratiladi.

“**Kompozitsiya**” atamasi lotin tilidan olingan boʻlib, *tuzilish, birlashish, bogʻlanish* maʼnolarini anglatadi. Asarning kompozitsion tuzilishi ijodkor gʻoyasini tomashabinga aniq, oson, tez yetib borishiga xizmat qiladi.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida “kompazitsiya – adabiy asar, sanʼat asari qisimlarining tuzilishi, joylashishi va oʻzaro munosobati, tarkibiy qismlari maʼno jihatidan oʻzaro bogʻlanib birlik tashkil etgan badiiy asar, muzika yoki rassomlik asari”, -deb taʼriflangan. Demak, kompazitsiya hozirgi zamon talqinida biror sanʼat asarining turli tomonlari, qismlari mushtarak yigʻindisini anglatadi. Kompazitsiya tabiat, jamiyat va inson faoliyatiga bogʻliq tushuncha. Tabiatdagi barcha jonsiz va jonli narsalar garmonik va dis garmonik yaxlitlikka-kompazitsiyaga ega. Masalan biror hayvon yoki daraxtga qarang. Hayvon oyoqlari, boʻyni, shoxi va qulogʻi yo gavdasining birligi uning qanaqa hayvon ekanligini anglatadi. Asarning kompozitsion tuzilishi ijodkor gʻoyasini tomashabinga aniq, oson, tez yetib borishiga xizmat qiladi.

Kompozitsiya orqali rassom asardagi mazmunning muayyan tartibdagi chiziq, shakl, rang va boshqa vositalar orqali tomoshabinga taʼsir kuchini oshiradi. Uning elementlarini oʻzaro bogʻlab joy-joyiga qoʻyadi, fazoviy kenglikni yaratadi. Har bir tasviriyy sanʼat asari maʼlum kompozitsiyaga ega boʻladi. Zero, kompozitsiya asar yaratilishida birinchi galda hal etiladigan muhim ish hisoblanadi. Kompazitsiya tuzilishning oʻziga xos qonun-qoidalari, vosita va uslublari mavjud.

Tasviriyy sanʼatda kompozitsiyaning asosan uch turi amal qiladi. Ular frontal kompazitsiya, hajimli kompazitsiya chuqur fazoviy kompazitsiyadan iboratdir.

1.Frontal kompazitsiya. Bunda tasvir tekislik yuzasida ishlanadi. Ular rang-tasvir, relʼefli haykallar, binolarning old qismi - fasadidagi tasvirli naqishlar boʻlishi mumkin.

2.Hajimli kompazitsiya. Bunday kompazitsiyalar uch oʻlchamga ega tasvirlar boʻlib, ularni har tomonondan kuzatish mumkin. Ular asosan yumaloq haykallar, amaliy sanʼat buyumlari, meʼmorchilik binolarining modellarida namoyon boʻladi.

3.Chuqur-fazoviy kompazitsiya.Bunday kompazitsiyalar ko`poq turarjoy va jamoat binolarining ichki qismini, xususan uy ichki xonalari, jamoat joylarining foesi, teatr sahnasi kabilarning loyihalarida ko`zga tashlanadi.

Rang tasvir kompazitsiyasi ham tasviriy san`atda katta o`rinni egallaydi.Bunga sabab tasviriy san`at oldiga qo`yiladigan vazifalarning aksariati, xususan kishilarda badiiy did, tafakkur va xotirani o`stirish, dunyoqarashni kengaytirish, tasviriy san`atni his etish malakalarini rivojlantirish rangtasvir kompazit siyasining asosini tashkil etadi.

Kompazitsiya qonunlari- birinchi galda bir butunlik yoki suvrat detallarining o`zaro bog`liqligi qonuni, muvozanat qonuni, suvratda yangilikning bo`lishi, kontrastlar qonuni, hayotiylik qonuni kabilar nazarda tutiladi.

Kompazitsiya qoidalari esa ritm, kompazitsion markazning bo`lishi, detallarning simmetrik yoki assimetrik joylashuvi, kompazitsiyada harakat, turg`unlik, planlilik, paralellik kabilar nazarda tutiladi. O`quvchilar kompazitsiyaga xos qonun-qoidalar bilan birga uning uslublari va vositalari haqida ham ma`lum tasavvurga ega bo`lishlari lozim.

Kompazitsiya uslublari deyilganda tasvirni monumental tarzda ifodalash, fazoviy tasvirlash,detallarni tik, yotiq, dioganallar bo`yicha tasvirlash tushiniladi. Masalan, V.Surikov “Boyvuchcha Morozova” nomli asarida kompazitsiyadagi harakatni ko`rsatish uchun detallarni diogonal yo`nalishi bo`yicha joylashtirgan.

Kompazitsiya vositalari deyilganda chiziq,oq va qora ranglar,rang dog`lari, chiziqli va havo (rang) perspektivasi qoidalariasosida tasvirlash tushiniladi.

Kompazitsiyada kontrastlar qonuni ham alohida ahamiyat kasb etadi.Bu qonun asardagi detallarning rang va ton jihatidan bir-biridan keskin farq qilishini bildiradi.Xususan,ular och va to`q, iliq va sovuq rangda, og`ir va engil ranglarda bir-biriga qarama-qarshi bo`lishlari lozim.Shundagina suvratdagi detallar bir-birining fonida aniq va ifodali ko`rinadi.

Tasviriy san`atda, ayniqsa rangtasvirda rangning roli benihoya kattadir. U asarning mazmuni va g`oyasining to`la ochilishiga, uning tomoshabinga emot-

sional–hissiy taʼsirini kuchaytirishga,shu bilan birgalikda kompazitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Asarda detallarning assimetrik joylashuvi esa detal,shakl,yorugʻ va soya, rang,harakat,holatlar orqali roʻy beradi. Detallarning asarda assimetrik joylashuvi rasm gʻoyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.Aytaylik, asarning ikki tomonida qarama-qarshi kuchlar tengsizligini koʻrsatmoqchi boʻlganida, rassom assimetriya qoidasidan foydalanishi mumkin. Detallar assimetrik boʻlgani taqdirda asarda muvozanatni buzilmasligi uchun rassom detallarni ritmik loylashtirishdan foydalanadi.

Rassomlar koʻpincha oʻz asarlarida muayan ritm boʻlishiga eʼtibor beradilar. Bu tasviriy sanʼatning barcha tur va janrlarida qoʻllaniladi.Ritm koʻproq shakl, rang, oʻlchov, nur va soya, harakat koʻrinishlarida ifodalanadi. U asar mazmuni bilan bogʻliq boʻlib, muallifning gʻoyasini tomoshabinga tez va oson etkazishga xizmat qiladi, asarni ifodaviyligini oshiradi.

Oʻzbekistonning Zaraoʻtsoyidan (Surxandaryo) topilgan ibtidoiy odamlar ishlab qoldirilgan tasvirlarning nafisligi va mahorat bilan ishlaganligi hammaga ayon. Bu tasvirlarda ibtidoiy odamning kuzatuvchanligi, rang bilan narsa va hayvonlar rasmini bera olish qobiliyatini koʻrsata olgan. Ammobu tasvirlarda narsa va hodisalar joylashuvi va tasvirda ibtidoiy odamning kompazitsiya yaratishdagi oqizligi ham koʻzga tashlanadi. Hayvonlar bir-biri bilan, maʼlum kompazitsion markaz bilan bogʻlanmagan.

Badiiy tafakkurni primitiv shakli, primitiv kompazitsiyalar yaratishda oʻz ifodasini topgan.


Kompazitsiya kursida tasavvurni shakllantirishda qaratilgan mashqlar ham boʻlishi kerak. Ular, adabiy mavzudagi vazifalar ham boʻlishi mumkin. Talabalar badiiy asarning gʻoyasini anglab yetishi, ishtirok etuvchi qahramonlar timsoluni tasavvur eta olishi, tasviriy qiyos orqali asarning mazmunini talqin qila olishi kerak.Bunday kompazitsiya ustida ishlash jarayonida ham, albatta, naturadan chizilgan etyudlar, xomaki

Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalan-ganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uygotadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda quvatli ekanligi ma'lum, bo'lib haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakl-langan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuv-chi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektming asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin.

Ranglar tabiatdan ikki xil xususiyatli: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qato-riga qizil, sariq zarg'aldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek, axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi. Oq, kulrang va qora ranglar axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kulrang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi, ya'ni qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va hokazo, och-to'qligi, ya'ni och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi.

Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha, qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoiyinsini, ya'ni ranglar uyg'unligini bilish katta ahamiyatga ega. Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida



22-расм. 1.24 ранг спектори. 2. 12 хил ранг тусини ҳосил қилиш.

narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko'rinishi va tasvirdagi ko'rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin, chunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'ri-nishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida mu-him ahamiyat kasb etuvchi omillardan eiig muhimi deb liisoblasak o'rinlidir. Akvarel bo'yoqida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab

etuvchi mashrutotdir. Buning uchun amaliy ishning o'zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta. o'rganib borishni taqozo etadi.

O'quvchilar rangshunoslik nazariyasini puxta bilishlari shart. Shuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish natijasida savodli rasm ishlash yo'llarini o'rganish mumkin. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar I. Nyutori, V. Lomonosov, G. Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tekshirganlar. M.V. Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. I. Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rang ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan.

Buning uchun I. Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib, uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelmgols rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati rang tusi, rangning och to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatdi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hoi rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinganligi deganda uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushinish kerak. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havorang, zangori ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yartni-dagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq ranglardir. Sunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar — olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatga, havorang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustmaust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havorang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oq'rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi, chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havorang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va have rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va liavo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havoranglari qo'shilishi natijasida oq hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.

Yoki unga yaqin nim kulrang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi (qo'shimcha) hisoblanadi. Masalan, to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq, havorang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida tola o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Akvarel rangtasvirning eng nozik turla-ridan biri. Qadimdan akvarel o'zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar*» ma'nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi (o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni va biriktiruvchi) modda sifa-tida olcha yelimi, glitserin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o'rnini oq qog'ozning o'zi o'taydi. Qog'oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g'adirdir bo'lishi zarur. U agar juda silliq bo'lsa, sathida ranglar yetarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo'yash jarayo-nida umumiydan xususiyga, yoki aksincha, xususiydan umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Rangtasvir ishlashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir desak xato bo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdags hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kulrang, qoramtir, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil ya binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin, chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tishi mumkin. Xuddi shunday binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak, o'quv mashg'ulotida rangtasvirni ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega,

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to'g'ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa, naturmortdagi narsalarning och- to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birliгинi tushunishga o'rganish uchun naturmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin naturmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.




Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta naturmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan ham naturmort ishlash ancha oson bo'ladi.

Naturmortlar ko'pincha xonalarga qo'yib ishlanadi. Ammo ba'zan uni tabiat qo'ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to'g'ri keladi. Shunday paytda naturmortni ishlashdan avval uning rang xususiyatlarini tahlil qilib, tushunib olish muhimdir, chunki xona ichiga qo'yilgan natunnortga derazadan tushayotgan nur narsalarning yorug' qismida sovuq ranglarni beradi. Buyiimlardan tushayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo'lib ko'rinadi. Ochiq havodagi, chizilayotgan narsalar buning




Grizaylda bajarilgan naturmort.

aksidir, ularning soyasi sovuq, yorur qismi esa iliq bo'lib ko'rinishi mumkin.



Naturmort kompozitsiyasi.

ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so'ng e'tibor bilan tasvirlash ish sifatining yaxshi bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.



Ma'lumki ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta - sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo'yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o'z o'mida jo'yali qo'llash muhimdir.

Akvarel bo'yoqlari 24-16 xil rangli to'plamlar holida bo'ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo'yilgan yorlig'ini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchani tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo'lishi mumkin, ya'ni: limon rang kadmiy, sariq kadmiy, och oxra, tabiiy siena, oltinsimon sariq, zarg'aldoq kadmiy, qizil oxra, kuydirilgan siena, och qizil, guldor, qizil kraplak, karmin (erkin qizil), binafsha kraplak, ultramarin, ko'k kobalt, havorang, zumrad yashil, yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to'q jigarrang), jigarrang mars (och), kuydirilgan umbra (jigarrang), sepiya (chiroyli to'q jigarrang), qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo, yetuk rassom ranglarning o'zaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib, ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun ras-somga ranglar nisbatini bilishi, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishiga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir, havorang, yashil, zangori tuslarda beriladi. Tasvir bilan chizila yotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganishi va bilishi kerak. Har xil bo'yoqlar bilan (akvarel, guash moybo'yoq) naturmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlar texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlash usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlari bilan ishlash, salmoqli o'rinni egallaydi. Shuning uchun o'qituvchining o'zi ham shu sohani puxta egallagan bo'lishi zarur.




Naturmort (akv.).



Qush tulumu (akv.).







Y.Elizarov. "So`zanali natyurmort".

UMUMIY XULOSA

Tasviriy san`atda, borliqni aks ettirish o`z-o`zidan paydo bo`lmadi. U inson paydo bo`lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O`rta asrga kelib o`zining eng yuqori cho`qqisini namoyon qildi. Evropa bu borada dynuo sivilizatsiyasiga o`ziga xos o`ringa ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san`at arboblari etishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Men o`zimning malakaviy bitiruv ishimda “Rang tasvirda natyurmort janri” haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim.

Bu ishim bilan men, kelajak avlodlarimiz bo`lgan bolalar ongini, tafakkurini boyitish, tasviriy san`t shaydolarini shakllantirishdek, byuk maqsad sari intiladigan, zamonamiz tayanchlarini, yetuk shaxslarni yetishtirib berishdek mas`uliyatli vazifaga o`z hissamni qo`shganimdan mamnunman. Ko`nglida tasviriy san`atga bo`lgan ishtiyoqi baland kishilardan, hech qachon vatan xoinlari chiqmaydi. Bunday kishilar, vatan kelajagi uchun uning gullab yashnashi uchun, qo`llaridan kelgan barcha ishlarni qilishga, tayyordirlar. O`z bilim va zakovatlarini, namoyon qila olishlariga iymonimiz komildir.

Men o`z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. -T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. G' O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so'zlagan nutqi. - T.:Sharq, 1997.- 53b.
- 6 Shaxtaxinskiy M. K voprosu izucheniya "Analitiki" Aristotelya.
G' Ocherki istorii shkolo` i pedagogicheskoy mo`сли narodov s drevneyshix vremen do kontsa 18 v.- Moskva: MGU, 1995-S.-34-46.
- 7 Lebedev K. A. Aporii Zennona v razdumyax filosofov. G'G' Filosofiya Vostoka i Zapada.- Sb.nauch. trudov – M: MGU.- S.117.
- 8 Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.-17b.
- 9 Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyot va nazariyaG'G' Ma'rifat.-2004,- 21 fevral.
- 10 Rubinshteyn L. S. Psixologiya lichnosti.-M.: Prosveshenie,1991-237 s.
- 11 Raykov B. E. Slovesno`e formo` i metodo` obucheniya.-M.: Znanie,1997.- 282 s.
- 12 Pavlov I. P. Psixologiya vo`sshego razuma.-M.: Prosvehenie, 4-e izd., 1987.-434 s.
- 13 Botir Boymetov Qalam tasvir "MUSIQA" nashriyot TOSHKENT-2006
- 14 B.Z. Azimova "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi"Toshkent – O'qituvchi-1984.
- 15 B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli lug`ati.Toshkent -1994.
- 16 S. Abdiraulov Tasviriy san`at atamalari. Toshkent- 2003
- 17 G.V.Beda. JIVOPIS. Moskva -1989.
- 18 L.O.Barsh. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.
- 19 B.S.Kuzin. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.

- 20 A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
- 21 X.Egamov.Bo`yoqlar bilan ishlash. –Toshkent . “O`qituvchi”1981.
- 22 R.Hasanov.”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi”Toshkent.-
“Fan”.2004.
- 23 A.Y. Terent`yev.Izobrajenie jivotnix I ptits sretstvami risunka I jivipisi.
Moskva.-1980.
- 24 N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-
“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
- 25 M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
- 26 N.M.Moleva.Vidayusheysiya russskiy xudojniki – pedagogi. Moskva
,1991.
- 27 N.Rastovtsev. Akademicheskiy risunok.Moskva,1985.
- 28 V.S.Kuziin. voprosi izobrazitel`nogo tvorchestvo.-Moskva.1971.

Navoiy davlat pedagogika instituti “Tasviriy
san`at va muhandislik grafikasi” maxsus sirtqi
bo`lim ta`lim yunalishi bitiruvchi 3-“V” kurs
talabasi

Ergasheva Halovat Sultonovna

“Rang tasvirda natyurmort”

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Talaba Ergasheva Halovat Sultonovna “Rang tasvirda natyurmort” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – o`quvchilar tafakkurini o`stirish muammosining yechimini topishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, malakaviy bitiruv ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Talaba Ergasheva Halovat Sultonovna malakaviy bitiruv ishida tasviriy san`at mashg`ulotlarida natyurmort haqida umumiy tushuncha berishni, tasviriy san`at usullari va metodlaridan foydalanishni va natyurmortga doir bir nechta ishlardan namunalar keltirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 61 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, o`quvchilaraga taniqli rassomlarning hayoti va ijodini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at o`quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi va umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at darslarida natyurmort mavzusini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e`tiborni

qaratgan. Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil-pedagogik kuzatuv, tajriba-sinovva usullaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o'rganish shundan dalolat beradiki, dissertatsiyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta o'ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qo'lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o'z yechimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Ergasheva Halovat Sultonovna tomonidan ayrim kamchiliklar ham uchraydi, jumladan:

1. Nazarimizda, tasviriy san'at o'qitishning birnecha dars konspektini 2-bobida batafsil keltirib o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida tasviriy san'atning o'qitish metodlar to'g'risida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq shakllantirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bildirilgan fikrlar, taklif va mulohazalar dissertatsiya ishining ilmiy qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi talablariga to'liq mos keladi. Uning muallifi Ergasheva Halovat Sultonovna—"tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi ixtisosligi bo'yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Ilmiy rahbar:

P.f.n. *A.Sulaymonov*

Navoiy davlat pedagogika instituti “Tasviriy
sanʼat va muhandislik grafikasi” maxsus sirtqi
boʻlim taʼlim yunalishi bitiruvchi 3-“V” kurs
talabasi

Ergasheva Halovat Sultonovna

“Rang tasvirda natyurmort”

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Talaba Ergasheva Halovat Sultonovna “Rang tasvirda natyurmort” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi oʻrta maktabda tasviriy sanʼat fanining rivojlanishidagi oʻziga xos xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda yozilganligi bilan bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega boʻlib borishi bilan belgilanadi.

Talaba malakaviy bitiruv ishida natyurmort haqida umumiy tushuncha berishni, natyurmortni chizish usullarini bayon etishni va natyurmortni bajarishga doir bir nechta koʻrinishlardan keltirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, jami 61 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, maktab oʻquvchilarining natyurmortni yaxshi oʻzlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilarida tasviriy sanʼat oʻquv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi, hamda umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻquvchilarida rang tasvir darslarida natyurmort mavzusini oʻrgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga eʼtiborni qaratgan.

Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil- pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, tasviriy sanʼat metodlaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini oʻrganish shundan dalolat beradiki, dissertatsiyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta oʻylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijro-

si oqibatida qoʻlga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham oʻz yechimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Ergasheva Halovat Sultonovna tomonidan ayrim kamchiliklarga ham yoʻl qoʻyilgan, jumladan:

1. Nazarimizda, tasviriy sanʼat oʻqitishning birnecha dars konspektini 2-bobida batafsil keltirib oʻtilsa, maqsadga muvofiq boʻlardi.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida ayrim texnik xatolar uchraydi;

Umuman, yuqorida bildirilgan noaniqliklar tadqiqotchi Ergasheva Halovat Sultonovna oʻtkazgan tadqiqotning ilmiy qimmatiga putur etkazmaydi, aksincha tadqiqot, haqqoniy bajarilganligidan dalolat beradi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi talablariga toʻliq mos keladi. Uning muallifi- Ergasheva Halovat Sultonovna– “tasviriy sanʼat va muhandislik grafikasi” yoʻnalishi ixtisosligi boʻyicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Navoiy Madaniyat va sanʼat kolleji oʻqituvchisi: _____R.Husenov.

HIMOYA KUNI**MBIni baholash mezon**

Mavzuning aktuelligi	Ishning mustaqil bajarilish darajasi	Amaliy ahamiyati	Yangi adabiyotlardan (Internet) foydalanish darajasi
12	32	16	10

Rasmiylashtirish sifati	MBIning himoyasi	Jami	%
10	20	100	%

DAK raisi: _____

DAK a'zolari: _____
